



## **QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG'I**

2023 -yil "22" 05 .

98 I- sonli Buyruqdan ko'chirma

Qarshi sh.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29- martdagи "O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasalardagi boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6-sonli qo'shma qarori ijrosini ta'minlash maqsadida**

### **BUYURAMAN:**

1. Prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari va universitet jamoat tashkilotlari rahbarlariga:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagи "O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasalardagi boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6-sonli qo'shma qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (O'.Abdullayev)ga: Qarshi davlat universitetdagi talaba-yoshlar, yosh pedagog xodimlar, ishchi xizmatchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan mavjud kollegial organlar, shu jumladan, kengashlar, ishchi guruuhlar, komissiyalar tarkibiga O'zbekiston yoshlar ittifoqi universitet boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi, Yoshlar Kengashi a'zolari (koordinatorlari) hamda fakultetlar koordinatorlarini doimiy a'zo sifatida kiritish;

ma'muriy ta'sir orqali sun'iy ravishda tashkil etilgan turli xil talabalar uyushmalari, assotsiatsiyalari, kengashlari faoliyatini tugatish hamda ularga rahbar sifatida faoliyat yuritib kelayotgan faol yoshlarni Ittifoqning boshlang'ich tashkiloti Yoshlar Kengashi qoshida tashkil etiladigan turli xil klublar, markazlar, harakatlar va boshqa turdag'i tuzilmalar tarkibiga o'tkazish;

universitet boshlang'ich tashkiloti faoliyatini qo'llab-quvvatlash, faoliyatda yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida operativ hal qilish, faol yoshlar rag'batlantirib borish maqsadida har oyda kamida bir marotaba universitet rektori huzurida tanqidiy-tahliliy yig'ilishlarni o'tkazib borish:

bir oy muddatda yoshlar yetakchisi faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqish, faoliyati qoniqarsiz deb topilgan taqdirda universitet boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi saylovi o'tkazish vazifalari yuklatilsin.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi universitet boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi uning vazifasi va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmanan yig'ilish va faoliyatiga oid bo'lmanan boshqa tadbirdarga jalb etish, yoshlar yetakchisining faoliyatiga asossiz aralashish, taalluqli bo'lmanan vazifalarni talab etish va yuklash taqiqlansin.

4. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (X.Djurayev), Reja-moliya bo'limi boshlig'i (S.Xolboyev), universitet bosh hisobchisi (A.Shodiyev)ga: universitet boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi professor-o'qituvchi va boshqa toifadagi xodimiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 517-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 17'-bandiga, boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi bo'lgan bakalavr va magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalarga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 20'-bandiga muvofiq har oylik qo'shimcha haq to'lab borish;

2023-yilning 1-aprel sanasidan boshlab O'zbekiston yoshlar ittifoqi universitet boshlang'ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a'zolari(koordinatorlari) hamda fakultetlar koordinatorlarini ularning ta'lim olish shakli (davlat granti yoki to'lov-shartnoma asosida kunduzgi, sirtqi, kechki) va o'zlashtirish ko'rsatkichidan qat'iy nazar universitetning budgetdan tashqari mablag'lari hamda talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan universitet boshlang'ich tashkiloti Yoshlar yetakchisining tavsiyasiga asosan har oyda bazaviy stipendiyaning uch baravari miqdoriga teng bo'lgan qo'shimcha moddiy rag'batlantirib borish;

Ittifoqning universitedagi boshlang'ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a'zolari (koordinatorlari) hamda fakultetlar koordinatorlarini har oyda qo'shimcha moddiy rag'batlantirib borish;

O'zbekiston yoshlar ittifoqining universitet boshlang'ich tashkiloti yillik ish rejasida ko'zdautilgan loyihamalar va tadbirdarni tashkil etish hamda o'tkazish, g'olib va sovrindorlarni rag'batlantirish bilan bog'liq moliyaviy sarf-xarajatlarni universitetning budgetdan tashqari mablag'lari hamda talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan doimiy moliyalashtirib borish;

bir oy muddatda universitet boshlang'ich tashkiloti moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida boshlang'ich tashkilot Kengashi uchun qulay sharoitga ega bo'lgan xizmat xonalarini ajratish va moddiy-texnik jihozlar bilan ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosining nazaratini o'z zimmamda qoldiraman.



Asos: D.Ravshanovning buyruq loyihasi

Rektor

D.Nabiyev

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi**

Toshkent shahri,

2023-yil “04” aprel

No 03/15-262

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi**

Toshkent shahri,

2023-yil “04” aprel

No 04-13/275

**Oliy ta’lim muassasalari rektorlari  
va filiallar direktorlariga**


**O‘zbekiston yoshlar ittifoqining  
Qoraqalpog‘iston Respublikasi,  
viloyatlar va Toshkent shahar  
Kengashlari raislariga**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagи “**O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi Qarori ijro uchun yuborilmoqda.

Shu munosabat bilan Sizdan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini mazkur Qaror asosida tashkil etishingiz so‘raladi.

Ilova: 15 varaqda.

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va  
innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari**

  
S.Buzrukxonov

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi raisi v.b**

  
T.Poyonov



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHINING**  
**QARORI**

**O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" PF-5106-son Farmoni, 2017-yil 18-iyuldagagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3138-son qarori, 2023-yilda yoshlarning bandligini ta'minlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va mafkuraviy tarbiyasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha "Yo'l xaritasi", Oliy ta'lif muassasalarida talaba-yoshlar bilan ishslash samaradorligini oshirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan yagona tadbirlar kalendar rejasini ijrosini ta'minlash, talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularning ma'naviy-mafkuraviy dunyoqarashini mustahkamlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida **qaror qiladi:**

1. Talaba-yoshlar bilan olib borilayotgan ma'naviy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, shu jumladan bundan buyon faoliyati yo'lga qo'yiladigan barcha oliy ta'lif muassasalari (*davlat oliy ta'lif muassasalari va filiallari, nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari, xorijiy oliy ta'lif muassasalarining filiallari*)da O'zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilishi har tomonlama qo'llab-quvvatlansin.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasasidagi boshlang'ich tashkiloti to'g'risidagi nizom 1-ilovaga;

O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasasidagi boshlang'ich tashkiloti tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga;

O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasni 3-ilovaga;

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi va hududiy Kengashlariga:

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

boshlang‘ich tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularga o‘z vazifalarini lozim darajada amalga oshirishi uchun uslubiy ko‘maklashish;

boshlang‘ich tashkilotlar faoliyatida vujudga keladigan muammolarni hal qilish yuzasidan idoralararo hamkorlikni ta’minlash;

boshlang‘ich tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etilishini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim muassasalariga chiqib, boshlang‘ich tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni joyida o‘rganib borish;

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari yetakchilarining Respublika Yetakchilar Kengashini tuzish;

har yili namunali faoliyat yuritib kelayotgan Ittifoqning oliy ta’lim muassasalari (*tashkilotlari*)dagi boshlang‘ich tashkilotlari yetakchilarini “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlab borish vazifalari yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga:

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari yoshlar yetakchilarini (*ilmiy darajaga ega bo‘lgan taqdirda*) oliy ta’lim muassasalarining prorektori (*direktor o‘rinbosari*) lavozimiga kadrlar zaxirasiga kiritish;

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari yoshlar yetakchilarini oliy ta’lim muassasalari rektorlarining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi etib belgilash;

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari yoshlar yetakchilarining Respublika Yetakchilar Kengashi faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida vazirlik binosida Kengash faoliyat yuritishi uchun qulay sharoitga ega bo‘lgan xizmat xonasini ajratish va moddiy-texnik vositalar bilan jihozlash;

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari yoshlar yetakchilarining Respublika Yetakchilar Kengashi a’zolarini vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan doimiy rag‘batlantirib borish;

har yili “Yoshlar kuni” arafasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining tavsiyasi bilan namunali faoliyat yuritib kelayotgan kamida 20 (*yigirma*) nafar Ittifoqning oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari yoshlar yetakchilari hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi a’zolarini “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va

innovatsiyalar vazirining faxriy yorlig‘i”, “Oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlab borish vazifalari yuklatilsin.

5. Davlat oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlariga, davlat ishtirokidagi xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari direktorlariga:

**o’n kun muddatda** O‘zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang‘ich tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan oliy ta’lim muassasalarida Ittifoqning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy Kengashlari bilan kelishgan holda Ittifoqning boshlang‘ich tashkiloti faoliyatini tashkil etish choralarini ko‘rish;

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi bo‘lgan oliy ta’lim muassasasining professor-o‘qituvchisi va boshqa toifadagi xodimiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 517-sun qarori bilan tasdiqlangan nizomning 17<sup>1</sup>-bandiga, boshlang‘ich tashkilot yoshlar yetakchisi bo‘lgan bakalavr va magistratura bosqichida ta’lim olayotgan talabalarga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-sun qarori bilan tasdiqlangan nizomning 20<sup>1</sup>-bandiga muvofiq har oylik qo‘srimcha haq to‘lab borish;

**2023-yilning 1-aprel sanasidan boshlab** O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a’zolari (*koordinatorlari*) hamda fakultetlar koordinatorlarini ularning ta’lim olish shakli (*davlat granti yoki to ‘lov-shartnoma asosida kunduzgi, sirtqi, kechki*) va o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan qat’iy nazar oliy ta’lim muassasasining budgetdan tashqari mablag‘lari hamda talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar yetakchisining tavsiyasiga asosan oliy ta’lim muassasasi rektorining tegishli buyrug‘i bilan har oyda bazaviy stipendianing uch baravari miqdoriga teng bo‘lgan qo‘srimcha moddiy rag‘batlantirib borish;

ichki lokal hujjatlarida yuqorida keltirilgan normalar aks ettirilmagan idoraviy bo‘ysunuvidan qat’iy nazar barcha davlat oliy ta’lim muassasalari 2023-yilning 15-aprel sanasiga qadar o‘zlarining ichki lokal hujjatlariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqadigan tegishli o‘zgartirishlarini kiritish hamda Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a’zolari (*koordinatorlari*) hamda fakultetlar koordinatorlarini har oyda qo‘srimcha moddiy rag‘batlantirib borish;

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti yillik ish rejasida ko‘zda utilgan loyihalar va tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish hamda g‘oliblari, sovrindorlarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq moliyaviy sarf-xarajatlarni oliy ta’lim muassasasining budgetdan tashqari mablag‘lari hamda talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan doimiy moliyalashtirib borish;

**bir oy muddatda** O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida boshlang‘ich tashkilot Kengashi uchun qulay sharoitga ega bo‘lgan xizmat xonalarini ajratish va moddiy-texnik jihozlar bilan ta’minlash;

oliy ta’lim muassasalaridagi talaba-yoshlar, yosh pedagog xodimlar, ishchi xizmatchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda qo’llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan mavjud kollegial organlar, shu jumladan, kengashlar, ishchi guruhlar, komissiyalar tarkibiga O’zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi, Yoshlar Kengashi a’zolari (*koordinatorlari*) hamda fakultetlar koordinatorlarini doimiy a’zo sifatida kiritish;

Davlat oliy ta’lim muassasalarida ma’muriy ta’sir orqali sun’iy ravishda tashkil etilgan turli xil talabalar uyushmalari, assotsiatsiyalari, kengashlari faoliyatini tugatish hamda ularga rahbar sifatida faoliyat yuritib kelayotgan faol yoshlarni Ittifoqning boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar Kengashi qoshida tashkil etiladigan turli xil klublar, markazlar, harakatlar va boshqa turdagи tuzilmalar tarkibiga o’tkazish;

Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti faoliyatini qo’llab-quvvatlash, faoliyatda yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni o‘z vaqtida operativ hal qilish, faol yoshlar rag‘batlantirib borish maqsadida har oyda kamida bir marotaba oliy ta’lim muassasalari rektorlari huzurida tanqidiy-tahliliy yig‘ilishlarni o’tkazib borish vazifalari yuklatilsin.

#### 6. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlariga:

O’zbekiston yoshlar ittifoqining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy Kengashlari bilan hamkorlikda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida Ittifoqning boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, Ittifoqning boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a’zolari (*koordinatorlari*) hamda fakultetlar koordinatorlarini moddiy rag‘batlantirib borish, ular uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga doir ikki tomonlama o‘zaro kelishuv hujjatlarini imzolash tavsiya etilsin.

7. O’zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari yoshlar yetakchilarini ularning vazifa va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan yig‘ilish va faoliyatiga oid bo‘lmagan boshqa tadbirdarga jalb etish, yoshlar yetakchilarning faoliyatiga asossiz aralashish, taalluqli bo‘lmagan vazifalarni talab etish va yuklash taqiqlansin.

8. O’zbekiston yoshlar ittifoqining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy Kengashlari raislari, oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filialar direktorlari bilan birgalikda bir oy muddatda mazkur qarorning 1-2-ilovalari bilan tasdiqlangan nizom va tashkiliy tuzilma asosida Ittifoqning oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilsin, yoshlar yetakchilari faoliyatini tanqidiy ko‘rib chiqilsin, faoliyati qoniqarsiz deb topilgan taqdirda Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi saylovi o’tkazilsin.

9. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 22-avgustdagi 39-Q/Q-son hamda O’zbekiston yoshlar ittifoqining 2017-yil 22-avgustdagi 10-QQ-son “O’zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim

muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari S.Buzrukxonov, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o‘rinbosari M.Baratova belgilansin.

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar**  
vaziri



*10-03-2023* I.Abduraxmonov

Toshkent sh.,  
2023-yil 29-mart,  
6-13/03 -son

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqi**  
**Markaziy Kengashi raisi**

T.Poyonov



Toshkent sh.,  
2023-yil 29-mart,  
1-KK -son

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan  
va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil  
~~29~~-martdagи ~~6-03~~-sonli, O'zbekiston  
yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining  
2023-yil ~~29~~-martdagи ~~9-03~~-sonli  
qaroriga 1-ilova*

**O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasasidagi  
boslang'ich tashkiloti to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasasidagi boslang'ich tashkilotining (keyingi o'rnlarda — boslang'ich tashkilot) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va mas'uliyati, faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

2. Boshlang'ich tashkilot — oliy ta'lif muassasasidagi kamida besh nafar Ittifoqning maqsad va vazifalariga xayriyoh bo'lgan yoshlarning tashabbusi bilan tuziladi hamda Ittifoqning hududiy Kengashlari tomonidan ro'yxatga olinadi.

3. Boshlang'ich tashkilot oliy ta'lif muassasasidagi talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularning ma'naviy-mafkuraviy dunyoqarashini mustahkamlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish borasida faoliyat yurituvchi O'zbekiston yoshlar ittifoqining eng quyi tuzilmasi hisoblanadi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy, hududiy va mahalliy Kengashlariga bo'ysunadi.

4. Boshlang'ich tashkilot o'z faoliyatini oliy ta'lif muassasasi rahbariyati, oliy ta'lif muassasasidagi boshqa tuzilmalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Ittifoqning boshlang'ich tashkiloti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston yoshlar ittifoqining Ustavi, shuningdek, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjalari amal qiladi.

**2-bob. Boshlang'ich tashkilotning maqsad va vazifalari**

6. Boshlang'ich tashkilotning asosiy maqsadi oliy ta'lif muassasasida talaba-yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ma'naviy-mafkuraviy dunyoqarashini mustahkamlash, iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, talaba-yoshlar tashabbuslarini amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat.

7. Boshlang'ich tashkilot o'z oldiga quydagi vazifalarni qo'yadi:

oliy ta'lif muassasasida talaba-yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar yuzasidan takliflar tayyorlash;

ijtimoiy himoyaga muhtoj, yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba-yoshlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini tashkil etish, shuningdek, huquqbazarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo'lgan talaba-yoshlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtiroy etish;

talaba-yoshlarni ona vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongiga milliy istiqlol g'oyasi, milliy qadriyatlar, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va oilaviy qadriyatlarini chuqr singdirish;

talaba-yoshlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan fuqarolik huquq va burchlarini anglatish, ularga mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish;

talaba-yoshlarning muammolari, murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etishda ko'maklashish;

talaba-yoshlarining chuqur bilim olishi, chet tillarini o'rganishi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashi hamda ularni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

oliy ta'lif muassasasida iste'dodli yoshlarni kashf etish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadigan klub va to'garaklar faoliyatini tashkil etish;

oliy ta'lif muassasasida yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ularning kitob o'qishga bo'lgan muhabbatini oshirish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

oliy ta'lif muassasasi talaba-yoshlarida "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi zararli illatlar, axborot xurujlari, diniy aqidaparastlik, missionerlik va ekstremistik g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

oliy ta'lif muassasasi talaba-yoshlari o'rtasida yoshlar turizmini rivojlantirish, ularning o'zları yashayotgan hududdagi tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylar, teatrlar, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarga tashriflar uyuştirish;

oliy ta'lif muassasasi yoshlari, ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida sportni keng targ'ib etish, ularning sportga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash va turli sport musobaqalarida ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

oliy ta'lif muassasasi yoshlariga tibbiy madaniyat, xususan, kasalliklardan himoyalanish yo'llarini keng tushuntirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tashkil etish;

oliy ta'lif muassasasi yoshlari o'rtasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni targ'ib qilish orqali ularda ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

### **3-bob. Boshlang'ich tashkilotning huquq va majburiyatları**

#### **8. Boshlang'ich tashkilotning huquqlari quydagilardan iborat:**

talaba-yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o'quv, tarbiya va boshqa jarayonlarda ishtirok etish, mas'ul xodimlar va o'qituvchilardan zarur ma'lumotlarni olish hamda nazorat qilish;

oliy ta'lif muassasasidagi darslar sifati, professor-o'qituvchilarning talabalar bilan munosabati, shuningdek, kutubxona, sport obyektlari faoliyatini o'rganish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

talaba-yoshlarning muammolari, taklif-tashabbuslari yuzasidan oliy ta'lif muassasasi rektori va yuqori tashkilotlarga takliflar kiritish;

oliy ta'lif muassasasidagi sharoitlardan to'la foydalanish, yoshlar ishtirokida to'garaklar, klublar tashkil etish, ish rejadagi chora-tadbirlarning oliy ta'lif muassasasi tomonidan moliyalashtirilishini tashkil etish;

nizomda belgilangan tartibda oliy ta'lif muassasasida qo'shimcha tuzilmalarni tashkil etish; faoliyatiga doir ma'lumotlarni tarqatish va targ'ib etish;

boshlang'ich tashkilot tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanishi mumkin.

#### **9. Boshlang'ich tashkilotning majburiyatları quydagilardan iborat:**

O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda oliy ta'lif muassasasi tomonidan qabul qilingan lokal hujjatlar doirasida faoliyat yuritish, ularda belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish;

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqining yuqori turuvchi Kengashlari, oliy ta'lif muassasasi rahbariyatining boshlang'ich tashkilot vazifa va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lgan tegishli topshiriqlari va ko'rsatmalarini bajarish;

O'zbekiston yoshlar ittifoqining tegishli hududiy Kengashiga hamda oliy ta'lif muassasasi rahbariyatiga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlarni har chorakda taqdim etib borish;

boshlang'ich tashkilot uchun ajratilgan xonalar, moddiy-texnik vositalar va mablag'lardan to'g'ri foydalanish;

oliy ta'lif muassasasining o'quv, tarbiya va boshqa ishlariga ko'maklashish.

#### **4-bob. Boshlang‘ich tashkilotning tashkiliy tuzilmasi**

10. Boshlang‘ich tashkilot tashkiliy tuzilmasiga quyidagilar kiradi:  
boshlang‘ich tashkilotning umumiy yig‘ilishi;  
boshlang‘ich tashkilot Yoshlar Kengashi (Boshlang‘ich tashkilot yoshlar yetakchisi, yo‘nalish koordinatorlaridan iborat);  
boshlang‘ich tashkilotning fakultetdagi koordinatorlari;  
boshlang‘ich tashkilotning akademik guruhdagi koordinatorlari;  
boshlang‘ich tashkilot qoshidagi tuzilmalar (to‘garaklar, klublar, uyushmalar, harakatlar va boshqalar)

11. Boshlang‘ich tashkilotning umumiy yig‘ilishi:

Boshlang‘ich tashkilotning umumiy yig‘ilishi boshlang‘ich tashkilotning rahbar organi hisoblanadi. Boshlang‘ich tashkilot Yoshlar yetakchisi, Yoshlar Kengashi a’zolari va fakultet koordinatorlari hisobotlarini tinglash, ular bo‘yicha qarorlar qabul qilish maqsadida hisobot yig‘ilishi bir yilda kamida bir marta, mazkur Nizomda belgilangan boshqa vakolatlari yuzasidan vakolatli umumiy yig‘ilish ikki yilda kamida bir marta chaqiriladi. Umumiy yig‘ilishni chaqirish to‘g‘risidagi qaror Yoshlar Kengashi yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Umumiy yig‘ilishni chaqirish to‘g‘risidagi qaror Yoshlar Kengashi a’zolari (*koordinatorlari*)ning kamida uchdan ikki qismi uni yoqlab ovoz bergen taqdirda qabul qilingan deb hisoblanadi. Uni chaqirish to‘g‘risidagi qaror va kun tartibi umumiy yig‘ilishdan kamida ikki hafta oldin e’lon qilinadi.

12. Umumiy yig‘ilish boshlang‘ich tashkilot faoliyatiga daxldor bo‘lgan barcha masalalarni ko‘rib chiqish va ular bo‘yicha tegishli qarorlarni qabul qilish huquqiga ega.

Umumiy yig‘ilish vakolatiga quyidagilar kiradi:

boshlang‘ich tashkilotni qayta tashkil etish va faoliyatini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

boshlang‘ich tashkilot Yoshlar yetakchisi, Yoshlar Kengashi a’zolari va fakultet koordinatori hisobotlarini tinglash, ular bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

boshlang‘ich tashkilot Yoshlar Kengashi tarkibini saylash;

boshlang‘ich tashkilotni qayta tashkil etish va faoliyatini tugatish bo‘yicha qarorlar ular uchun umumiy yig‘ilish delegatlarining uchdan ikki qismi ovoz berganda qabul qilingan deb hisoblanadi. Boshqa masalalar bo‘yicha qarorlar ular uchun umumiy yig‘ilish ishtirokchilarining ko‘philigi ovoz bergen taqdirda qabul qilingan deb hisoblanadi;

boshlang‘ich tashkilotning umumiy yig‘ilishi uning ishida saylangan delegatlarning uchdan ikki qismi qatnashgan taqdirda, qaror qabul qilishga vakolatli deb hisoblanadi;

boshlang‘ich tashkilotning umumiy yig‘ilishi delegatlari fakultet koordinatołari hamda akademik guruhlar koordinatorlarining kengaytirilgan yig‘ilishida saylanadi. Umumiy yig‘ilishga saylanadigan delegatlarning vakillik normasi, saylash tartibi, umumiy yig‘ilish kun tartibi va uning o‘tkazilish sanasi boshlang‘ich tashkilot Yoshlar Kengashi yig‘ilishi tomonidan belgilanadi.

13. Boshlang‘ich tashkilot Yoshlar Kengashi umumiy yig‘ilishlar oraliq‘ida boshlang‘ich tashkilotning rahbar organi hisoblanadi va yetti kishidan kam bo‘lmagan tarkibda 2 yil muddatga saylanadi.

14. Boshlang‘ich tashkilot Yoshlar Kengashi:

Boshlang‘ich tashkilot Yoshlar Kengashiga Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi rahbarlik qiladi.

Yoshlar Kengashi tarkibiga egallab turgan lavozimlariga muvofiq:

- Yoshlar yetakchisi;
- Intellektual loyihalar koordinatori;
- Besh tashabbus loyihalari koordinatori;
- Harbiy-vatanparvarlik loyihalari koordinatori;
- Tadbirkorlik va innovatsion loyihalar koordinatori;
- “Yoshlar daftari” va metsenatlik dasturlari koordinatori;
- Talaba qizlar koordinatori kiradi.

15. Yoshlar yetakchisi quyidagi vazifalarni bajaradi:  
boshlang‘ich tashkilot faoliyatiga rahbarlik qiladi;  
boshlang‘ich tashkilot faoliyatining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtiradi, fakultetlar Yoshlar Kengashlari va guruhlar yoshlar yetakchilari faoliyatiga rahbarlik qiladi, tizimdagi barcha yetakchilar faoliyatiga uslubiy ko‘mak ko‘rsatadi, a‘zolarning, talaba-yoshlarning taklif va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi;

Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkilot faoliyatiga rahbarlik qiladi;  
oliy ta’lim muassasasi talaba-yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi;  
boshlang‘ich tashkilot faoliyatini tashkil etadi va uning nomidan ish yuritadi;  
yuqori tashkilotlar va oliy ta’lim muassasasi rahbariga boshlang‘ich tashkilot faoliyati yuzasidan so‘ralgan ma’lumot, axborot va hisobotlarni taqdim etib boradi;  
boshlang‘ich tashkilot uchun belgilangan nomenklatura asosida ish yuritadi, yuqori tashkilotlar rahbarlari va oliy ta’lim muassasasi rektori topshiriqlarining bajarilishini ta’minkaydi;  
boshlang‘ich tashkilot uchun ajratilgan xonalar, moddiy-texnik vositalar va mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minkaydi;  
oliy ta’lim muassasasi Kengashi, talaba-yoshlar, yosh pedagog xodimlar, ishchi xizmatchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan mavjud kollegial organlar, shu jumladan, kengashlar, ishchi guruhlar, boshqa yoshlar masalasiga oid komissiyalar a‘zosi sifatida faoliyat yuritadi.

16. Boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi oliy ta’lim muassasasi rektori (direktori)ning yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi hisoblanadi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy Kengashi va oliy ta’lim muassasasi rektoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadi.

17. Boshlang‘ich tashkilotning fakultet koordinatori:

Boshlang‘ich tashkilotning mavjud fakultet(lar)da tashkil etiladigan ayni bir fakultet miqyosida faoliyat yurituvchi bo‘g‘in hisoblanadi.

fakultet yoshlar yetakchisi fakultetning akademik guruhlardagi yoshlarni yetakchilari hamda faol-tashabbuskor talaba-yoshlari ishtiroykida o‘tkaziladigan yig‘ilishda fakultetda tahsil olayotgan talabalar orasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq ovoz berish yo‘li orqali ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi.

18. Boshlang‘ich tashkilotning akademik guruhlardagi koordinatori:

Boshlang‘ich tashkilotning akademik guruhlardagi koordinatori boshlang‘ich tashkilotning guruhlar darajasida ishlarni tashkil etuvchi quyi bo‘g‘ini hisoblanadi;

guruh koordinatori oliy ta’lim muassasasida talabalar soni kamida 20 (yigirma) nafardan ortiq bo‘lgan akademik guruhlarda guruh talabalarini orasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq ovoz berish yo‘li orqali ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi. Akademik guruhlarda talabalar soni 20 (yigirma) nafardan kam bo‘lgan taqdirda yo‘nalishlar yoki kurslar kesimida guruh yoshlarni yetakchisi saylanadi.

19. Boshlang‘ich tashkilot qoshidagi tuzilmalar (to‘garaklar, klublar va boshqalar):

Boshlang‘ich tashkilot oliy ta’lim muassasasida o‘zining maqsad va vazifalari hamda talaba-yoshlarning hohish va istaklari asosida turli tuzilmalar jumladan, to‘garaklar, klublar, uyushmalar, volontorlik guruhlari, harakatlar va boshqalarni tuzishi mumkin;

mazkur tuzilmalar ishiga boshlang‘ich tashkilot Yoshlar Kengashining tegishli yo‘nalishlari koordinatorlari rahbarlik qiladi.

## **5-bob. Boshlang‘ich tashkilot yoshlar yetakchisini saylash**

20. Yoshlar yetakchisi saylovi boshlang‘ich tashkilotning umumiyligi yig‘ilishida yig‘ilish ishtiroychilarining umumiyligi, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida ochiq ovoz berish orqali o‘tkaziladi.

21. Boshlang‘ich tashkilot yoshlar yetakchiliga oliy ta’lim muassasasidagi fakultetlar Yoshlar Kengashlari, talabalarning tashabbuskor guruhlari oliy ta’lim muassasasi rektori bilan kelishgan holda nomzodlarni ko‘rsatish huquqiga ega.

22. Ko‘rsatilgan nomzodlar oliy ta’lim muassasasi rektorining tavsiyasi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tegishli hududiy Kengashlari huzuridagi tanlov komissiyasi suhbatdan o‘tish uchun yuboriladi.

23. Tanlov komissiyasi suhbatidan o‘tgan nomzodlar boshlang‘ich tashkilotning umumiylig‘ilishida Yoshlar yetakchisi saylovi jarayonlarida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

24. Yoshlar yetakchisi lavozimiga ko‘rilayotgan nomzodlar:

saylov o‘tkazilayotgan vaqtida 35 (o‘ttiz besh) yoshdan oshmagan, yoshlar bilan ishslash amaliyotiga ega ta’lim muassasasida talaba, magistr, tayanch doktorant yoki oliy ta’lim muassasasi pedagog xodimlari;

yetakchilik, liderlik qobiliyati, notiqlik mahorati, tashabbuskorlik va fidoyilik xususiyatlari;

boshqaruv qobiliyati, tashkilotchilik, jamoat bilan ishslash va ish yuritish bo‘yicha bilim-ko‘nikma hamda muayyan ish tajribasiga;

yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar, ma’naviy tahdidlar, zararli illatlar haqida yetarli tasavvurga;

mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosati va ta’lim-tarbiya jarayoniga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim.

25. Yoshlar yetakchiliga nomzodlarga saylovoldi tashviqotni olib borish uchun 10 kun (o‘n kun) muddat beriladi. Nomzodlar bu vaqt oralig‘ida saylovchilarni o‘z dasturlari bilan tanishtiradi;

yoshlar yetakchisi sayloviga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish ochiq va oshkora tarzda amalga oshiriladi;

saylovoldi tashviqoti saylov kunidan bir kun oldin to‘xtatiladi;

boshlang‘ich tashkilotining umumiylig‘ilishida delegatlarning nisbatan ko‘p ovozini to‘plagan nomzod yoshlar yetakchisi etib saylangan hisoblanadi;

boshlang‘ich tashkilotining umumiylig‘ilishida saylangan yoshlar yetakchisi 2 (ikki) yil davomida o‘z faoliyatini olib boradi.

26. Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o‘tayotganini yoritib borish mumkin.

## **6-bob. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlash**

27. Oliy ta’lim muassasasi tomonidan boshlang‘ich tashkilotga alohida xona, ish stoli va stullar, javonlar, kompyuterlar jamlanmasi, printer, proyektor, ekran, raqamli fotoapparat hamda zaruriy devonxona mollari bilan ta‘minlanadi.

28. Boshlang‘ich tashkilotning ish rejasida belgilangan chora-tadbirlar oliy ta’lim muassasasining ish rejasiga kiritiladi.


29. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, uslubiy qo‘llanmalar va tarqatma materiallar O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi tomonidan ta‘minlanadi.

## **7-bob. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatini to‘xtatish**

30. Boshlang‘ich tashkilot faoliyatini to‘xtatishga asosli sabablar bo‘lsa, uning faoliyati umumiylig‘ilish qarori bilan o‘rnatilgan tartibda tugatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va  
innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-martdagi 6-16-soni,  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining  
2023-yil 29-martdagi 7-16-soni qaroriga 2-ilova

O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasasidagi boshlang'ich tashkiloti  
**TASHKILIY TUZILMASI**



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 14-martdag'i  
~~6-14~~-sonli, O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
 Markaziy Kengashining 2023-yil 23-martdag'i  
~~1-21~~-sonli qaroriga 3-ilova

**O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari  
 faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar  
 REJASI**

| T/r. | Chora-tadbirlar nomi   | Amalga oshirish mexanizmi   | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul ijrochilar   |
|------|--|---|---------------------|----------------------------|---|
| 1.   | Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha oliy ta'lif muassasalarida O'zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yish | 1. Oliy ta'lif muassasalari bilan O'zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy Kengashlari o'rtaida o'zaro hamkorlik kelishuvlarini imzolash;<br>2. Oliy ta'lif muassasalarida Ittifoqning boshlang'ich tashkiloti Yoshlar yetakchisi, Yoshlar Kengashlari a'zolarini saylash.  | 2023-yil<br>aprel   | -                          | O'zbekiston yoshlar ittifoqining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy Kengashlari raislari, Oliy ta'lif muassasalari rektorlari |
| 2.   | O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari yetakchilarining Respublika Yetakchilar Kengashini tuzish       | 1. Respublika Yetakchilar Kengashi to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Respublika Yetakchilar Kengashi a'zoligiga saylovlarни o'tkazish;<br>3. Respublika Yetakchilar Kengashi faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi binosida alohida xizmat xonasini ajratish va moddiy-texnik vositalar bilan jihozlash. | 2023-yil<br>aprel   | Ijrochilar<br>mablag'lari  | Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy Kengashi  |
| 3.   | O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasasidagi boshlang'ich tashkiloti moddiy-texnik bazasini mustahkamlash                                 | 1. Ittifoqning oliy ta'lif muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari moddiy-texnik bazasini inventarizatsiyadan to'liq o'tkazish;<br>2. Inventarizatsiya yakunlari bo'yicha boshlang'ich tashkilot faoliyat yuritishi uchun zaruriy xizmat xonalari, moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash.  | 2023-yil<br>aprel   | Ijrochilar<br>mablag'lari  | Oliy ta'lif muassasalari rektorlari   |

| T/r. | Chora-tadbirlar nomi  | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari                               | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul ijrochilar  |
|------|---|--|---|----------------------------|--|
| 4.   | O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a’zolari (yo‘nalishlar koordinatorlari), fakultetlar koordinatorlarini bazaviy stipendiyaning uch baravari miqdoriga teng bo‘lgan har oylik qo‘srimcha rag‘batlantirib borish  | 1. Oliy ta’lim muassasasining ichki lokal hujjalari tegishli o‘zgartirishlar kiritish;<br>2. Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a’zolari, fakultetlar yoshlar yetakchilari, talabalar turar joylaridagi yoshlar yetakchilarini rag‘batlantirib borish to‘g‘risida oliy ta’lim muassasasi rahbarining tegishli buyrug‘ini tayyorlash va ijroga yo‘naltirish.   | 2023-yil mart<br><br>2023-yil aprel               | Ijrochilar mablag‘lari     | Oliy ta’lim muassasalari rektorlari  |
| 5.   | O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti yillik ish rejasida ko‘zda tutilgan loyihamalar va tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish hamda g‘oliblari va sovrindorlarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq moliyaviy sarf-xarajatlarni oliy ta’lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hamda talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan moliyalashtirib borish | 1. Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti ish rejasidagi loyihamalar va tadbirlarni oliy ta’lim muassasasi tomonidan moliyalashtirish bo‘yicha moliyaviy manbalarni aniqlash, sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish;<br>2. Oliy ta’lim muassasasining yillik sarf-xarajatlar smetasiga Ittifoqning oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti ish rejasidagi loyihamalar va tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha tegishli hujjalarni qabul qilish. | 2023-yil aprel oyidan boshlab doimiy              | Ijrochilar mablag‘lari     | Oliy ta’lim muassasalari rektorlari  |
| 6.   | O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari Yoshlar yetakchilarining an‘anaviy forumlarini tashkil etib borish   | 1. Forumlarni o‘tkazish rejasи va dasturini ishlab chiqish;<br>2. Forumlarni muntazam tashkil etib borish.   | 2023-yildan boshlab har yili may, oktabr oylarida | Ijrochilar mablag‘lari     | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy Kengashi |
| 7.   | O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari Yoshlar yetakchilarining ilg‘or tajribalarini ommalashtirish maqsadida “Yilning eng yaxshi oliy ta’lim muassasasi Yoshlar yetakchisi”, “Eng namunali boshlang‘ich tashkiloti” ko‘rik-tanlovlarini tashkil etish va o‘tkazish   | 1. Ko‘rik-tanlov nizomini ishlab chiqish;<br>2. Oliy ta’lim muassasalarida ko‘rik-tanlov targ‘ibotini olib borish;<br>3. Ko‘rik-tanlovnı tashkil etish va o‘tkazish.   | 2023-yil may,<br><br>iyun-sentyabr<br><br>oktyabr | Ijrochilar mablag‘lari     | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy Kengashi |

| T/r. | Chora-tadbirlar nomi  | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari      | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ul ijrochilar   |
|------|---|--|--------------------------|----------------------------|---|
| 8.   | “Talabalar bahori” festivalini har yili an’anaviy tarzda o’tkazib borish  | 1. Festivalni tashkil etish va o’tkazish bo'yicha qo'shma qaror loyihasini tayyorlash hamda kelishish;<br>2. Festival konsepsiysi hamda dasturini ishlab chiqish va festivalni yuqori savyada tashkil etish; | 2023-yil<br>aprel<br>may | Ijrochilar<br>mablag'lari  | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,<br>O'zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy Kengashi |
| 9.   | O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlarda hujjatlar bilan ishlash, ish yuritishga doir uslubiy qo'llanma tayyorlash hamda boshlang'ich tashkilotlar yetkazib berish | 1. Uslubiy qo'llanmalarni ishlash chiqish va chop ettirish;<br>2. Oliy ta'lim muassasalariga uslubiy qo'llanmalarni yetkazib berish.   | 2023-yil<br>avgust       | Ijrochilar<br>mablag'lari  | O'zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy Kengashi  |
| 10.  | O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi doimiy ravishda yig'ilishlarini o'tkazib borish              | 1. Respublika komissiyasi yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida hududlarga chiqib o'rganishlar olib borish;<br>2. Respublika komissiyasi yig'ilishlari o'tkazish.                                   | Alovida<br>reja asosida  | -                          | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,<br>O'zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy Kengashi |

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-martdagi  
6-10-sonli, O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagi  
8-10-sonli qaroriga 4-ilova*

**O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lif muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari  
faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi  
TARKIBI**

- S.M.Buzrukxonov – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinosi, respublika komissiyasi raisi
- M.X.Baratova – O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'rinosi, respublika komissiyasi hamraisi
- N.U.Kasimov – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlari boshqarmasi boshlig'i, komissiya a'zosi
- S.I.Sanaqulov – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining Yoshlar siyosati, ijtimoiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlari bo'limi boshlig'i, komissiya a'zosi
- Sh.M.Anvarov – O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi raisi, komissiya a'zosi
- A.A.Tog'aymurodov – O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi Boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, komissiya kotibi

*Izoh: Respublika komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimiga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.*

